



## Farg'ona viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

1. Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 912,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 20,9 % ga oshdi.



•Qurilishda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 829,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 35,7 % ga oshdi.



•Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 103,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 24,8 % ga oshdi.

•Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 771,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 23,8 % ga oshdi.

•Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 786,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 27,5 % ga oshdi.



•Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2484,8 ming so'mni tashkil qildi va 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 23,9 % ga oshdi.

•Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 170,2 ming so'mni tashkil qildi va 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 16,6 % ga oshdi.




•Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1017,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 16,5 % ga oshdi.

Umuman, barcha turdagi xo'jalik faoliyati uchun joriy 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 368,7 ming so'mni tashkil qilib (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantiruvchi, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar hamda jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlarni ham o'z ichiga oladi), 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 17,7 foizga oshdi.



### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2018 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori moliya va sug'urta sohasida kuzatilib, 2 484,8 ming so'mni tashkil etmoqda. Keyingi o'rinlar savdo va qurilish sohasiga tegishli bo'lib, 2 103,9 ming hamda 1 829, 9 ming so'mga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha 1 017,9 ming so'mni o'z ichiga olmoqda.

2017 yilning mos davri bilan solishtirganda, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati qurilish sohasida 35,7 foiz, axborot va aloqa sohasida 27,5 foiz, eng past o'sish sur'ati sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 16,5 foiz va ta'lim sohasida 16,6 foizni tashkil etmoqda.

### Shahar va tumanlar kesimidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2018 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona (1 772,3 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 129,5 foiz), Quvasoy (1 507,1 ming so'm), Qo'qon (1 487,1 ming so'm) shaharlari hamda Toshloq tumanida (1 410,4 ming so'm) kuzatildi. Ish haqining eng past miqdori esa Buvayda (1 042,5 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 76,2 foiz) va Beshariq (1 044,1 ming so'm) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati Toshloq (134,2 foiz), O'zbekiston (127,9 foiz) va Beshariq (124,6 foiz) tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, aksincha, past o'sish sur'ati Quvasoy shahri (109,5 foiz) va Rishton tumani (111,3 foiz) da aniqlandi.

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, foizda)

	<b>2017 yil</b>	<b>2018 yil</b>	<b>Osish sur'ati</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1162,6</b>	<b>1368,7</b>	<b>117,7</b>
Farg'ona	1479,8	1772,3	119,8
Qo'qon	1208,5	1487,1	123,1
Quvasoy	1377,2	1507,4	109,5
Marg'ilon	1048,9	1269,7	121,1
Oltiariq	970,3	1134,1	116,9
Qo'shtepa	983,5	1148,2	116,7
Bog'dod	1011,5	1171,5	115,8
Buvayda	893,4	1042,5	116,7
Beshariq	838,2	1044,1	124,6
Quva	986,5	1131,3	114,7
Uchko'prik	957,6	1111,2	116,0
Rishton	979,6	1090,6	111,3
So'x	1041,6	1271,9	122,1
Toshloq	1050,8	1410,4	134,2
O'zbekiston	866,0	1108,1	127,9
Farg'ona t	927,1	1079,8	116,5
Dang'ara	946,7	1136,4	120,0
Furqat	957,3	1181,9	123,5
Yozyovon	1029,5	1209,8	117,5

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublika va viloyat miqyosida hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdorlari

(2018 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)



Faoliyat turi	Respublika	Viloyat	Farqi (+;-)
Sanoat	2550,9	1912,3	638,7
Qurilish	2148,2	1829,9	318,3
Savdo	1699,4	2103,9	-404,5
Tashish va saqlash	2361,2	1771,4	589,9
Axborot va kommunikatsiya	3196,8	1786,1	1410,7
Moliya va sug'urta faoliyati	3213,1	2484,8	728,3
Ta'lim	1275,8	1170,2	105,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1085,7	1017,9	67,8
Boshqalar	1584,0	1301,1	283,0

Demographya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul S. Meliqo'ziev

Telefon: (71) 230-87-33